KRIKET O‘YINIGA OID TERMINLARNING O‘ZBEK TILIGA MOSLASHUVI

Mustafayeva Nodira Abdujalilovna,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) o‘qituvchi
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti.
*E-mail:*nodira197605@gmail.com
KR-51-25-guruh talabasi
Amonov Seymanbey Xushvaqt o‘g‘li
seymanamonov634@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada kriket sportiga oid terminlarning o‘zbek tiliga kirib kelishi, ularning lingvistik adaptatsiya jarayonlari, xususan fonetik, morfologik va semantik moslashuv xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, sport diskursida kriket terminlarining qo‘llanishi, ularning standartlashuvi va kommunikativ ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari sport terminologiyasini milliy til me’yorlariga moslashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: kriket, terminologiya, lingvistik adaptatsiya, sport tili, transliteratsiya, semantik tarjima.

Abstract: This article examines the process of adaptation of cricket-related terminology into the Uzbek language. The study analyzes the main linguistic mechanisms involved in this process, including phonetic, morphological, and semantic adaptation. Cricket terminology, primarily borrowed from English, undergoes significant transformation as it integrates into the Uzbek linguistic system. The paper also explores the role of transliteration, calquing, and semantic translation in shaping the structure of sports terminology. Furthermore, the communicative and functional aspects of cricket terms in sports discourse are discussed. The findings highlight the importance of standardizing sports terminology in order to ensure clarity and consistency in professional and public communication.

Keywords:cricket, terminology, linguistic adaptation, sports language, transliteration, semantic adaptation, Uzbek language

Аннотация: В данной статье рассматривается процесс адаптации терминов, связанных с игрой в крикет, в узбекском языке. Анализируются основные лингвистические механизмы данного процесса, включая фонетическую, морфологическую и семантическую адаптацию. Терминология крикета, заимствованная преимущественно из английского языка, претерпевает значительные изменения при интеграции в узбекскую языковую систему. В работе также освещается роль транслитерации, калькирования и семантического перевода в формировании спортивной терминологии. Кроме того, рассматриваются коммуникативные и функциональные особенности употребления терминов крикета в спортивном дискурсе. Полученные результаты подчеркивают важность стандартизации спортивной терминологии для обеспечения точности и единообразия в профессиональной и общественной коммуникации.

Ключевые слова: крикет, терминология, лингвистическая адаптация, язык спорта, транслитерация, семантическая адаптация, узбекский язык

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda terminologiya muammolari muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sport sohasida globalizatsiya jarayonlari tufayli yangi terminlarning kirib kelishi kuchaymoqda. Kriket sporti ham asosan ingliz tili asosida shakllangan bo‘lib, uning terminologiyasi boshqa tillarga, jumladan o‘zbek tiliga ham faol o‘zlashmoqda. Kriket — jamoaviy sport turi bo‘lib, ingliz tilida shakllangan terminlar tizimiga ega. Ushbu terminlar o‘zbek tiliga kirib kelishda turli lingvistik moslashuv jarayonlarini boshdan kechiradi.

Asosiy qism Lingvistik adaptatsiya — bu chet tilidan kirgan birliklarning qabul qiluvchi til tizimiga moslashuvi jarayonidir. Sport terminlari ko‘pincha ingliz tilidan o‘zlashadi va bu jarayonda fonetik, morfologik hamda semantik moslashuv kabi jarayonlar yuz beradi [2; 3]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sport terminlari asosan transliteratsiya, semantik tarjima va kalka usullari orqali o‘zlashadi [7; 8]. Shu bilan birga, ingliz tilidan kirib kelayotgan terminlar o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida qayta shakllanadi [4]. Kriket terminologiyasi asosan ingliz tilidan o‘zlashgan bo‘lib, ayrim hollarda rus tili orqali ham kirib keladi. Bu holat sport terminologiyasining umumiy xususiyati hisoblanadi [9].

Masalan:

bat → bat (ba’zan “bit” shaklida ham uchraydi)

- *ball* → bol / to‘p

- *wicket* → viket

- *bowler* → bouler

- *batsman* → batsman / zarba beruvchi

Bu terminlar o‘zbek tiliga kirib kelgach, asta-sekin normativ shaklga ega bo‘lib boradi. Fonetik adaptatsiya jarayonida terminlar o‘zbek tilining talaffuz qoidalariga moslashtiriladi.

Masalan:

- *wicket* → viket

-*bowler* → bouler

cricket → kriket

Bu jarayonda tovushlarning soddalashuvi va o‘zbek fonetik tizimiga moslashuvi kuzatiladi. Bunday moslashuv sport terminlarining keng ommaga tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi [5]. Morfologik adaptatsiyada o‘zlashgan terminlar o‘zbek tilining grammatik tizimiga moslashadi:viketlar, boulerga, batsmanning zarbasi O‘zbek tili agglutinativ til bo‘lgani sababli, terminlarga turli qo‘shimchalar erkin qo‘shiladi. Bu esa ularning til tizimiga

to‘liq integratsiyalashganini ko‘rsatadi [4] Semantik adaptatsiyada ba’zi terminlar bevosita o‘zlashtirilsa, boshqalari tarjima qilinadi:

- *run* → yugurish / ochko

- *catch* → tutib olish

out → o‘yindan chiqish

Semantik adaptatsiya jarayonida terminning ma’nosi o‘zbek tilidagi mavjud tushunchalar orqali ifodalanadi. Bu esa terminning kommunikativ samaradorligini oshiradi [3. Kriket terminlari asosan:sport sharhlari,ommaviy axborot vositalari, professional sportchilar nutqi orqali faol qo‘llanadi.Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sport terminlari kommunikativ vazifani bajarib, nutqda aniqlik va tezkorlikni ta’minlaydi [10]. Shu sababli, ularning to‘g‘ri va standart shaklda qo‘llanishi muhimdir. Kriket terminlarini o‘zbek tiliga moslashtirishda quyidagi muammolar mavjud:terminlarning turlicha yozilishi, yagona standartning yo‘qligi, ortiqcha transliteratsiya Tilshunoslar terminlarni standartlashtirish va lug‘atlar orqali tartibga solish zarurligini ta’kidlaydilar[11].

Xulosa Kriket terminlari o‘zbek tiliga asosan ingliz tilidan o‘zlashib, lingvistik adaptatsiyaning barcha bosqichlarini bosib o‘tmoqda. Fonetik, morfologik va semantik moslashuv jarayonlari orqali bu terminlar o‘zbek til tizimiga integratsiyalashmoqda. Shu bilan birga, terminlarni standartlashtirish va ilmiy asosda tartibga solish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar

1. Wüster E. *Einführung in die Allgemeine Terminologielehre*. – Wien: Springer, 1991.
2. Sager J.C. *A Practical Course in Terminology Processing*. – Amsterdam, 1990.
3. Cabré M.T. *Terminology: Theory, Methods and Applications*. – 1999.
4. Xo‘jiyev A. *O‘zbek tili terminologiyasi*. – Toshkent, 1985.
5. Shukurov S. *Til va tarjima nazariyasi asoslari*. – Toshkent, 2010.
6. O‘zbekcha–ruscha–inglizcha sport terminlari lug‘ati. – Toshkent, 2020.
7. Dilbarjonov I., Isroiljon kizi G. Sport terminlarining umumiy xususiyatlari